



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'lqin qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozoov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozoov Komil Bahromovich</i>	122

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li

TMC instituti "Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi"
kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: talatmuxiddinov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari, tarkibiy elementlari va iqtisodiy mohiyati tahlil etiladi. Turizm infratuzilmasining moddiy, xizmat ko'rsatish, institutsional, raqamli va ekologik komponentlarining o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Xalqaro tajriba va O'zbekiston mintaqalari misolida turizm infratuzilmasining iqtisodiy o'sishga, bandlikka va aholi farovonligiga ta'siri baholanadi. Jizzax viloyati misolida mintaqaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, mintaqaviy iqtisodiyot, turizm klasteri, investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, Jizzax viloyati.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations, structural elements, and economic essence of tourism infrastructure development in the region. The interrelationship of material, service, institutional, digital, and ecological components of tourism infrastructure is studied. The impact of tourism infrastructure on economic growth, employment, and population welfare is assessed using international experience and the regions of Uzbekistan. A theoretical model for the development of regional tourism infrastructure is proposed using the example of Jizzax region.

Keywords: tourism infrastructure, regional economy, tourism cluster, investments, economic growth, Jizzax region.

Абстрактный: В статье анализируются теоретические основы, структурные элементы и экономическая сущность развития туристической инфраструктуры в регионе. Исследуется взаимосвязь материальных, сервисных, институциональных, цифровых и экологических компонентов туристической инфраструктуры. На примере международного опыта и регионов Узбекистана оценивается влияние туристической инфраструктуры на экономический рост, занятость и благосостояние населения. Предлагается теоретическая модель развития региональной туристической инфраструктуры на примере Джизакской области.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, региональная экономика, туристический кластер, инвестиции, экономический рост, Джизакская область.

Kirish (Введение/Introduction).

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotida turizm sektori iqtisodiy o'sishning eng dinamik va ko'p qirrali tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha xalqaro turizmdan olingan daromadlar 1 700 mlrd AQSh dollaridan oshib, jahon YaIMning 10,4 foizini tashkil etdi. Turizm tarmoqining tez rivojlanishi va uning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ro'lini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro sayyohlarni jalb etish va turizm infratuzilmasini zamonaviy talablarga darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentning 2025 yil 15 maydagi PF-87-son Farmoni sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish, turistik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va 2030-yilga qadar turizm sektorida 1 mlrd AQSh dollari daromadga erishish maqsadlarini belgilaydi. Biroq ushbu maqsadlarga erishish, avvalo, kuchli va zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Jizzax viloyati Markaziy O'zbekistonning geografik markazida joylashib, Zomin tog'-rekreatsiyon zonasi, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va Sarmish-Soy qoyatosh rasmlari kabi noyob tabiiy va madaniy turizm resurslari bilan ajralib turadi. Prezidentning 2026 yil 30 yanvardagi PQ-35-son Qarori viloyatda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish, 45 ta yangi mehmonxona barpo etish, 45 km temir yo'l qurish va 168 ming yangi ish o'rni yaratishni ko'zda tutadi. Shunday ekan, viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslarini shakllantirish va uning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslarini, tarkibiy elementlarini va iqtisodiy mohiyatini tahlil etish, shuningdek xalqaro tajriba va Jizzax viloyati

misolida turizm infratuzilmasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari iqtisodiyot, hududiy rivojlanish va xizmatlar sohasi tadqiqotlarida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda turizm infratuzilmasi turistlar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi transport, joylashtirish, axborot-kommunikatsiya, savdo va madaniy xizmatlar tizimi sifatida talqin etiladi. Turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi hududning investitsion jozibadorligi va turistik raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi [1].

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm infratuzilmasining iqtisodiy o'sish, bandlik va hududiy rivojlanishga ta'siri chuqur o'rganilgan. Xususan, turistik transport tarmoqlari, mehmonxona xo'jaligi va raqamli xizmatlarning rivojlanishi turistlar oqimini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [2]. Shu bilan birga, infratuzilmaviy investitsiyalar turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi [3].

Ilmiy adabiyotlarda turizm infratuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun transport, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, axborot markazlari va rekreatsiyon obyektlarning kompleks rivojlanishi zarurligini ko'rsatadilar [4]. Bunday yondashuv hududlarda turistik klasterlarni shakllantirish va xizmatlar zanjirini takomillashtirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Elektron bronlash tizimlari, mobil ilovalar, raqamli

navigatsiya va aqlli turizm konsepsiyasi turistlar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda [5]. Shu bois ko'plab davlatlar turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishda raqamli transformatsiya mexanizmlaridan keng foydalanmoqda.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida turizm infratuzilmasining ekologik jihatlariga ham katta ahamiyat berilmoqda. Tadqiqotlarda ekologik toza transport vositalari, energiya tejamon mehmonxonalar va yashil turizm obyektlari hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar sifatida baholanadi [6]. Bu esa turizm va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Hududiy iqtisodiyot bo'yicha olib borilgan izlanishlarda turizm infratuzilmasi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar sektorini kengaytirish va mahalliy aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi [7].

O'zbekiston olimlari tomonidan ham turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. Tadqiqotlarda mamlakatning tarixiy-madaniy salohiyatidan samarali foydalanish, transport va mehmonxona xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda hududiy turizm klasterlarini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan [8].

So'nggi ilmiy ishlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning institutsional mexanizmlariga ham e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va hududiy boshqaruv tizimini takomillashtirish turizm tarmog'ining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi [9].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods). Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tizimli tahlil va sintez metodi — turizm infratuzilmasining tarkibiy elementlarini va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishda; qiyosiy tahlil — xalqaro tajriba va O'zbekiston mintaqalarini solishtirish; statistik tahlil — mintaqaviy turizm ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash; klaster tahlili — mintaqaviy turizm klasterlarining shakllanish qonuniyatlarini aniqlash; ekspert baholash metodi — mavjud infratuzilma holatini baholash maqsadida qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik asosini O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi, Jizzax viloyati hokimligi statistika bo'limi, UNWTO, OECD va Jahon banki rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etadi. Tadqiqot 2016–2025-yillar davrini qamrab oladi. "Turizm infratuzilmasi" tushunchasiga iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan. Eng keng qo'llaniladigan ta'rifga ko'ra, turizm infratuzilmasi — bu turistik xizmatlar ko'rsatish, sayyohlarni qabul qilish va turistik mahsulotni shakllantirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik vositalar, muassasalar, tashkilotlar va institutlar majmuasidir. Biroq ushbu ta'rif infratuzilmaning faqat moddiy komponentini aks ettiradi va zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida uni kengaytirish zarurati mavjud. Muallif yondashuvi bo'yicha mintaqaviy turizm infratuzilmasi — bu turistik safarlar, xizmatlar va mahsulotlarni shakllantiruvchi moddiy, xizmat ko'rsatish, institutsional, raqamli va ekologik komponentlarning o'zaro uyg'un tizimi bo'lib, u mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini, iqtisodiy o'sishni va aholi farovonligini ta'minlaydi. Ushbu ta'rifda infratuzilmaning to'rtta muhim jihati aks ettirilgan: tizimlilik — elementlar o'zaro bog'liq; ko'p komponentlilik — faqat moddiy emas, barcha komponentlarni qamrab oladi; funktsionallik — mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi; barqarorlik — uzoq muddatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turizm infratuzilmasi quyidagi iqtisodiy funksiyalarni bajaradi: ishlab chiqarish funksiyasi — turistik mahsulot va xizmatlar yaratish uchun moddiy baza bo'lib xizmat qiladi; multiplikatsiya funksiyasi — turizm sektoridagi investitsiyalar boshqa tarmoqlarda ham qo'shimcha daromad yaratadi; integratsion funktsiya — mintaqadagi barcha iqtisodiy subyektlarni yagona turistik zanjirga birlashtiradi; stimullovchi funktsiya — mintaqada yangi tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi va bandlikni oshiradi. Infratuzilma elementlarining tasnifi va iqtisodiy funksiyalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Turizm infratuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning iqtisodiy funksiyalari¹

№	Infratuzilma turi	Tarkibiy elementlar	Iqtisodiy funksiyasi
1	Moddiy	Mehmonxonalar, yo'llar, aeroportlar, dam olish markazlari	Turistlarni qabul qilish, yashash, harakatlanishini ta'minlash
2	Xizmat ko'rsatish	Restoran, transport, sog'lomlashtirish, ko'ngilochar markazlar	Turistik talabni qondirish, daromad zanjirini shakllantirish
3	Institutsional	Agentliklar, boshqaruv organlari, sertifikatlash tizimi	Tarmoqni tartibga solish, raqobat, sifat nazorati
4	Raqamli	Onlayn platformalar, raqamli xaritalar, smart-turizm tizimlari	Bronlash, marketing, axborot xizmati samaradorligini oshirish
5	Ekologik	Milliy parklar, ekologik yo'llar, qo'riqxonalar	Barqaror turizm uchun resurs bazasini saqlash va rivojlantirish

Turizm infratuzilmasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri bir nechta kanal orqali amalga oshadi. Birinchi kanal — to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy samara: turistlar sarflagan mablag'lar bevosita turizm sektorida daromad va bandlikni oshiradi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, bir turistning mintaqada sarflagan har 1 dollar turizm sektorida 1,5–2,3 dollar iqtisodiy samara hosil qiladi (multiplikator effekti).

Ikkinchi kanal — bilvosita iqtisodiy samara: turizm infratuzilmasi rivojlanishi boshqa tarmoqlarga — qurilish, transport, oziq-ovqat sanoati, hunarmandchilik — ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. McKinsey Global Institutning tadqiqotiga ko'ra, turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan har 1 dollar investitsiya boshqa tarmoqlarda 2,4–3,1 dollar qo'shimcha qiymat yaratadi. Jizzax viloyatida 2022–2024-yillarda turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 638,7 mlrd so'mga yetib, turizm daromadlari 187,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Uchinchi kanal — inson kapitali va bandlik: turizm sektori yuqori mehnat sig'imli tarmoq bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Jizzax viloyatida turizm bandligi 2022–2024-yillarda 7 280 kishidan 13 480 kishiga — 85,2 foizga — oshdi. Bundan tashqari, 25 ta turizm mahallasida 168 ming yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda.

To'rtinchi kanal — innovatsion rivojlanish impulsi: zamonaviy turizm infratuzilmasi mintaqada texnologik innovatsiyalar joriy etilishini rag'batlantiradi. Smart-turizm tizimlari, raqamli bronlash platformalari va sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar turizm sektorining raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida turizm sektorida raqamli transformatsiyani kengaytirish yiliga 3,1 foizlik qo'shimcha daromad o'sishiga olib kelishi bashorat qilinmoqda.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results). Turli mamlakatlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning turli modellari qo'llaniladi. Janubiy Koreya modeli — davlat va xususiy sektor hamkorligiga (PPP) asoslanib, turizm klasterlarini strategik rejalashtirish va moliyalashtirish orqali 1990–2010-yillarda xalqaro sayyohlar sonini 5,3 marta oshirishga erishdi. Germaniya modeli — mintaqaviy turizm brendini shakllantirish va infratuzilmani ekologik standartlarga moslashtirishga ustuvor e'tibor qaratib, "yashil turizm"

¹ muallif ishlanmasi.

konsepsiyasini amaliyotga joriy etdi. Singapur modeli — cheklangan maydonda raqamli infratuzilma va premium sifatli xizmatlarga e'tibor qaratib, kichik hududda yuqori daromadli turizm zonasini shakllantirdi. O'zbekiston va xalqaro ko'rsatkichlar taqqoslash jadvali quyida keltirilgan (2-jadval). Jadval O'zbekistonning jahon va mintaqaviy o'rtachadan ustunliklari va rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

2-jadval

O'zbekiston va xalqaro ko'rsatkichlar taqqoslash²

Ko'rsatkich	O'zbekiston (2025)	O'rta Osiyo o'rtacha	OECD o'rtacha	Maqsad (2030)
Xalqaro sayyohlar soni (mln kishi)	6,7	4,2	32,4	15,0
Turizm YaIMdagi ulushi (%)	3,1	2,8	8,7	7,0
Joylashtirish vositalari (ming dona)	2,4	1,8	18,6	5,0
Turizm bandligi (ming kishi)	312,4	186,2	1284,6	700,0
Turizm daromadlari (mln USD)	2 874,6	1 342,8	24 687,4	6 000,0

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston xalqaro sayyohlar soni bo'yicha O'rta Osiyo o'rtachasidan yuqori (6,7 mln kishi vs 4,2 mln), biroq OECD mamlakatlariga nisbatan sezilarli orqada qolmoqda. Turizm YaIMdagi ulushi (3,1%) jahon o'rtacha ko'rsatkichiga (10,4%) nisbatan 3,4 marta past. 2030-yilga belgilangan maqsadlar (15 mln sayyoh, 7% ulush) uchun turizm infratuzilmasiga yiliga kamida 20–25 foiz qo'shimcha investitsiya zarur. Jizzax viloyati uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy modeli quyidagi to'rtta asosiy printsipga asoslanishi lozim. Birinchi printsip — klasterlilik: viloyat turizm resurslari (Zomin tog'-rekreatsion zonasi, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Sarmish-Soy qoyatosh rasmlari) "Jizzax turizm halqasi" formatida birlashtirilishi va yagona klaster tizimida boshqarilishi zarur. Ikkinchi printsip — ko'p kanalli moliyalashtirish: turizm infratuzilmasini faqat davlat mablag'lari hisobiga rivojlantirish imkoni cheklangan. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik (PPP), xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar (ADB, Jahon banki) kreditlari va venchur kapitali kabi turli moliyalashtirish manbalarini birlashtirishni ko'zda tutuvchi ko'p kanalli moliyalashtirish modeli taklif etiladi. Uchinchi printsip — barqarorlik:

Literatury (Foydalanilgan adabiyotlar/References):

- World Tourism Organization (UN Tourism). Tourism and Rural Development: A Policy Perspective. Madrid, 2024.
- World Travel & Tourism Council. Economic Impact Research Report 2024. London, 2024.
- World Bank. Tourism for Development: Infrastructure and Competitiveness. Washington DC, 2023.
- Peter Mason. Tourism Impacts, Planning and Management. 5th Edition. Routledge, 2023.
- Buhalis Dimitrios. Smart Tourism Technologies and Destination Management // Tourism Review. 2024. Vol. 79(2).
- Organisation for Economic Co-operation and Development. Tourism Trends and Policies 2024. Paris, 2024.
- Asian Development Bank. Sustainable Tourism Infrastructure in Central Asia. Manila, 2023.
- Raximov A.A.. O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2024. №3.
- United Nations Development Programme. Sustainable Tourism and Regional Development Report. New York, 2024.
- Baratova Dinora Alisherovna. (2026). O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 90–91. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/446

Jizzax viloyatidagi unikal tabiiy ekotizimlar (Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Zaamin tog' o'rmonlari) turizm infratuzilmasini rivojlantirishda ekologik barqarorlik talablariga rioya etishni talab etadi. UNWTO ning barqaror turizm ko'rsatkichlari tizimi (STD)ning mintaqaviy sharoitga moslashtirilgan versiyasini qo'llash tavsiya etiladi. To'rtinchi printsip — raqamlashtirish: Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning to'rt bosqichli raqamli ekotizim arxitekturasi yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalari, mobil ilovalar, onlayn bronlash platformalari va sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlari orqali turizm sohasini raqamli transformatsiya qilishni nazarda tutadi.

Ushbu to'rtta prinsip asosida Jizzax viloyati turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy modeli quyidagi tuzilishga ega:

- resurs bazasi — tabiiy, madaniy-tarixiy, ekologik resurslar;
- infratuzilma moduli — transport, joylashtirish, xizmat ko'rsatish, raqamli va ekologik komponentlar;
- boshqaruv moduli — viloyat turizm departamenti, klaster koordinatsion kengashi, raqamli boshqaruv platforma;
- moliyalashtirish moduli — ko'p kanalli investitsiya jalb etish mexanizmi;
- monitoring moduli — KPI tizimi, barqarorlik baholash, iqtisodiy samara o'lchovi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar va takliflar shakllantirildi.

Birinchiidan, turizm infratuzilmasining ilmiy ta'rifi kengaytirildi va u moddiy, xizmat ko'rsatish, institutsional, raqamli va ekologik komponentlarni qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida ta'riflandi. Ushbu ta'rif mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish kontekstida turizm infratuzilmasini yanada to'liq tushunish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, turizm infratuzilmasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari to'rtta kanal — to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy samara, bilvosita iqtisodiy samara, inson kapitali va innovatsion rivojlanish impulsi — orqali amalga oshishi ilmiy asoslandi. Jizzax viloyatida 2022–2024-yillarda turizm sektoridagi ijobiy dinamika ushbu kanallarning amalda ishlayotganligini tasdiqlaydi.

Uchinchiidan, Jizzax viloyati uchun klasterlilik, ko'p kanalli moliyalashtirish, barqarorlik va raqamlashtirish prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan turizm infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy modeli taklif etildi.

To'rtinchidan, viloyat turizm infratuzilmasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: "Jizzax turizm halqasi" klasterini institutsional jihatdan rasmiylashtirib, yagona boshqaruv platformasini yaratish; turizm infratuzilmasiga ko'p kanalli investitsiyalar jalb etishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish; raqamli turizm ekotizimini bosqichma-bosqich joriy etib, 2028-yilga onlayn bronlash ulushini 85 foizga yetkazish; barqaror ekoturizm standartlarini joriy etib, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida "to'rt fasl turizmi" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish.